

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ATROF-MUHITGA IJOBIY MUNOSABATINI OSHIRISHDA EKSKURSIYALARING O‘RNI

**Danabayeva Diyora**

*TAFU talabasi*

*Elektron pochta:danabayevadiyora05@gmail.com*

**Bovanova Umida Abduvahabovna**

*Ilmiy rahabar: TAFU o‘qituvchisi*

*Umidabovanova8@gmail.com*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining atrof-muhitgaijobiy munosabatini oshirishni o‘rgatish usullari va óquvchilarini intilishlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ekskursiyalarini to‘g‘ri tashkil etish usullarihaqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologiya, ekologik tarbiya, ekologik munosabat, ekologik ta‘lim atrof-muhit, ekskursiya.

Mamlakatimiz ilk mustaqillik yillardayoq dunyodagloballashuv jarayonlarni keskilashuvidan kelib chiqqan holda atrof muhit masalasiga davlatsiyosatining ustuvor yo‘nalshlaridan biri sifatida e’tibor qaratdi. Yangi O‘zbekiston davrigakelib esa ushbu siyosat ko‘لامи va ahamiyati jihatdan yanada keng quloch yozdi. O‘tganyillar davomida sohaning mukammal tashkiliy-xuquqiy asoslari yaratildi, xar bir ekologik tadbirning moliyaviy manbalari aniqlab berildi. Barcha tabiat obyektlari, xususan suv,yer, bioxilmassilik resurslari va atmosfera havosi muhofazisini ta’minlashga yo‘naltirilgan koptseptsiya va strategiyalari ishlab chiqildi. Ushbu xujjatlarniamalga oshirish borasidagi tegishli “yo‘l xarita”larining amalga oshirilishi natijasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni keyingi 5 yil ichida 8 foizdan 14 foizga, o‘rmon fondi yerlari 12 foiz kengaydi. Birgina Orol dengizining qurigan maydonlarida 2mln maydonda yashil qoplamlar bilan qoplandi. Prezident tashabbusi bilan xar yili 200 mln daraxt va buta ko‘chatlarini ekish tom ma’noda an’ana va qadriyatlarga aylandi. Atrof muhitga antropogonta’sir etuvchi sanoat korxonalari va transport vositalari ustidan samarali davlat va jamoatchilik nazorat o‘rnatildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan majlisidagi nutqida ijtimoiy-iqtisodiy sohada qo‘lga kiritilgan yutuqlar qatorida ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasida amalga oshirilgan ishlar va kelgusi istiqboldasohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarga alohida e’tibor qaratdi. Xususan, 2030 yilga-cha yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, kengjamoatchilik ishtirokida ekologik pas-portlar va reytinglar ishlab chiqish va amaliyotga kiritish, yirik korxonalarda ekologik ishlab chiqishga o‘tishni qo‘llab quvvatlash tizimini joriy qilish bo‘yicha qonunlar yaratish zarurligi ta’kidlab o‘tildi. Shuningdek, O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti

tomonidan bu borada qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiyaning tashabbuskori bo’lganligi, O’zbekiston “yashil” energiyani rivojlantirish bo‘yicha Markaziy Osioning yetakchi davlatiga aylanganligi hamda ayni vaqtida “yashil” energetika iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga aylanayotganligi e’tirof etildi. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining atrof-muhitga ijobiy munosabatinishakllantirishda ekskursiyalar muhim o‘rin tutadi. Chunki bu yoshdagi bolalar asosan vizual va amaliy tajribalar orqali o‘rganadilar. Ekskursiyalar ularga tabiatni bevositakuzatish, ekologik muammolarni tushunish va atrof-muhitni muhofaza qilish zarurligini his qilish imkoniyatini beradi. Boshlang’ich sinflarda tabiat qóynigaekskursiyalarni tashkil etishning turlari nihoyatta kóp. Tabiatshunoslik fanini o‘qitishda ekskursiyaning ahamiyati katta. Ularsiz ushbu fanni o‘rganishni samarali olib borish mumkin emas. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ekskursiyalar davomiyligiga ko’ra, birsoatlik, bir kunlik va ko‘p kunlik bo‘lish mumkin. Bir soatga mo‘ljallangan ekskursiya – geografiya maydonchasida yoki o‘quv tajriba yer maydonchasida o‘tkaziladi. O’zbekistondabarcha boshlang’ich maktablarda atrof-muhit mavzulari 1chi va 2chi sinflarda «Atrofimizdagi dunyo» va 3chi va 4chi sinflarda «Inson va tabiat» fanlarida o‘tiladi. Biroq umumta’lim va o‘rta maktablarda ham ekologiya darslari yo‘q. Faqatgina atrof-muhitga tegishli ba’zi mavzular tabiiyfanlar va salomatlik va sog’lom turmush tarzi fanlari mavzulariga singdirilgan xalos.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang’ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishning asosiy yo‘nalishi – aniq-obrazli tafakkurdan mavhum-mantiqiy tafakkurga o‘tish hisoblanadi. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining atrof-muhitga ijobiy munosabatini oshirishda ekskursiyalarning o‘rni Tabiatga, ekoliyaga, atrof-muhitni asrashga bo‘lgan ijobiy munosabat yosh bolalikdan shakllanadi. Ayniqsa, boshlang’ich sinf o‘quvchilar uchun bu jarayonni ekskursiyalar orqali tashkil etish samarali usullardan biridir. Ekskursiyalar bolalar dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, ularda tabiatga hurmat va mehr-muhabbat uyg’otadi. Ekskursiyalarning ahamiyati Ekskursiyalar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’lash imkonini beradi. Boshlang’ich sinf o‘quvchilar tabiatni sevib qolishlari va unga g’amxo‘rlik qilishni o‘rganishlari uchun ularni bevosita ekologik muhit bilan tanishtirish muhim.

1. Tabiat qo‘ynidagi ekskursiyalar Bu turdagи ekskursiyalar bolalarni tabiat bilan yaqindan tanishtirishga yordam beradi. Masalan: Bog’ va parklar ekskursiyasi: O‘quvchilar turli daraxt, o‘simlik va gullarni ko‘rib, ularning nomlarini o‘rganadilar, fotosintez jarayoni haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Daryo yoki ko‘l bo‘yiga sayohat: Suv havzalari muhim ekologik manba ekanini tushuntirish, suvni toza saqlash zarurligini o‘rgatish mumkin. Masalan, “Suv – hayot manbai” mavzusida dars o‘tkazish va suvning ifloslanishi oqibatlarini tushuntirish o‘quvchilarga katta ta’sir qiladi. Hozirgi kunda maktab bolalarni ekskursiya op chiqib ularga tozalikni, asrab avaylashni o‘rgatishimiz lozimdir. Sababi ekskursiya vaqtida insonlarni tomosha qilishganida ular qilgan xatolarini ko’rib bolalarga “ular to’g’ri ish qildimi?” deya savol bersak ular o’z javoblarini aytishad, javoblariga qarab bilib olamiz qanchalik o‘quvchilarga manfaatli bo‘lganini.

2. Ekologik muammolarni o'rganishga qaratilgan ekskursiyalar O'quvchilarni ekologik muammolar bilan tanishtirish uchun quyidagi ekskursiyalar samarali bo'lishi mumkin: Chiqindilarni qayta ishslash zavodiga tashrif: Bolalar chiqindilarning qanday ajratilishini va qayta ishlanishini bevosita ko'rishlari natijasida chiqindilarni saralab tashlash odatini shakllantirishlari mumkin. Ekologik muammolar bo'lgan hududlarga sayohat: O'rmon kesilishi, daryo suvlari ifloslanishi kabi ekologik muammolarni o'z ko'zi bilan ko'rgan bola bu masalaga e'tiborli bo'lib ulg'ayadi.

3. Hayvonot va o'simlik dunyosi bilan tanishtirish Zoopark yoki botanika bog'iga ekskursiya: O'quvchilar turli hayvonlar va o'simliklar haqida bevosita bilim olishadi. Masalan, "Yo'qolib borayotgan hayvonlar" mavzusida o'tkazilgan ekskursiya bolalarga hayvonlarni asrash zarurligini tushuntirishga yordam beradi. Fermer xo'jaliklariga tashrif: Qishloq xo'jaligining tabiat bilan bog'liqligini tushuntirish mumkin. Masalan, bolalar asalari uyalarini kuzatib, asalarilar ekotizim uchun qanday foyda keltirishini tushunib yetishadi. Ekskursiyalar natijasida shakllanadigan ijobiy odatlar, ekskursiyalar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida quyidagi ijobiy odatlar shakllanadi: Atrof-muhitni toza saqlashga harakat qilish Daraxt ekish va gullarga g'amxo'rlik qilish Suv va havo ifloslanishining oldini olishga intilish Hayvonlarga mehribon bo'lish Chiqindilarni saralash odatini shakllantirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun ekskursiyalar – nafaqat qiziqarli sayohat, balki ularda ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirishning samarali usuli. Bolalar tabiatni o'z ko'zi bilan kuzatib, u bilan bevosita muloqot qilganlarida, unga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Shuning uchun maktab dasturlariga ko'proq ekologik ekskursiyalarni kiritish dolzarb masala hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ijobiy munosabatini shakllantirishda ekskursiyalarning o'rni juda muhimdir.

1. Tajribaviy ta'larning kuchi bolalar ko'rib, his qilib va tajriba orqali o'rganishda ancha muvaffaqiyatlari bo'ladilar. Kitoblarda daraxtlarning ahamiyati haqida yozilgan bo'lishi mumkin, lekin bolalar o'rmon ichida yurib, toza havoni his qilib, qushlarning uy qurishini ko'risha, tabiat bilan chuqurroq bog'lanadilar. Bu tajribaviy ta'lim bo'lib, o'quvchilarning bilimlarni yaxshiroq eslab qolishiga yordam beradi.

2. Ekskursiyalar xulq-atvorni shakllantirish vositasi sifatida Tabiat bilan bevosita tanishish bolalarda egalik hissi va javobgarlik tuyg'usini shakllantiradi. Agar ular ifloslangan daryoni ko'rsalar, bunga befarq bo'lmay, muammoni hal qilish yo'llarini o'ylay boshlaydilar. Maktablar ekskursiyalar orqali quyidagi foydali odatlarni shakllantirishi mumkin: Tabiat sayrida axlat yig'ish. Botanika bog'ida o'simliklarni sug'orish. Hayvonlar yashash muhitini va ularni himoya qilish.

3. Tabiatning psixologik ta'siri tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, tabiatda ko'p vaqt o'tkazish bolalarning ruhiy holati, diqqat-e'tibori va ijtimoiy ko'nikmalariga ijobiy ta'siri ko'rsatadi. Shuningdek, u stressni kamaytiradi va ijodkorlikni oshiradi. Agar bolalar tabiat bilan bog'liq ijobiy his-tuyg'ularni his qilishsa, kelajakda uni asrashga intilishadi.

4. Ekskursiyalarni jamoaviy o'rganish jarayoni sifatida tashkil etish Ekskursiyalar o'quvchilar, ekologlar, bog'bonlar, fermerlar va olimlarni bog'laydigan faoliyat bo'lishi

mumkin. Bu orqali bolalar atrof-muhitni himoya qilish hammaga tegishli mas’uliyat ekanini tushunishadi. Bundan tashqari, ekskursiyadan keyin ular oilalariga o’rganganlarini aytib berib, atrof-muhitni muhofaza qilish borasida jamiyatda xabardorlikni oshirishga hissa qo’sishlari mumkin.

5. Ekskursiyalarni texnologiya bilan boyitish Ekologik kundaliklar: O‘quvchilar sayohat davomida suratlar olib, chizmalar chizib yoki qisqa tavsiflar yozib, taassurotlarini hujjatlashtirishlari mumkin. Ilovalar yordamida o’rganish: Masalan, iNaturalist kabi ilovalar o’simlik va hayvonlarni aniqlashga yordam beradi, bu esa ekskursiyani yanada interaktiv qiladi. Virtual tahlillar: Ekskursiyadan so’ng muhokamalar, hujjatli filmlar yoki ijodiy loyihalar (plakat tayyorlash, hikoya yozish) orqali o’rganilgan bilimlarni mustahkamlash mumkin. Ekskursiyalar oddiy sayohat emas – kelajak avlodni ekologik ongli qilish uchun qudratli vosita. Agar har bir bola tabiatni sevib ulg’aysa, uni himoya qilish tabiiy ehtiyojga aylanadi.

Ekskursiyalarning yana bir nechta ahamiyati:

Tabiatga yaqinlik – O‘quvchilar o’rmon, bog’, daryo yoki boshqa tabiiy joylarga borib, tirik organizmlarni bevosita kuzatishadi. Bu ularda tabiatga mehr va hurmat hissini shakllantiradi.

Amaliy tajriba – Darslikdagi nazariy bilimlarni real hayotda ko’rish orqali yaxshiroq o’zlashtirishadi. Masalan, daraxtlarning ahamiyati yoki suv manbalarining himoyasi haqida o’rgangan bolalar, ekskursiya davomida buni amalda kuzatishadi.

Ekologik ongni rivojlantirish – Axborot faqat darsliklardan emas, balki tabiatning o’zidan olinganda, bolalar ekologik muammolarga befarq bo’lmay, ularga yechim topishga harakat qilishadi.

Jamoaviy ish va ijtimoiy mas’uliyat – Ekskursiyalar davomida bolalar jamoa bo’lib harakat qilishni o’rganishadi. Misol uchun, chiqindilarni to’plash yoki daraxt ekish kabi tadbirlar ularning atrof-muhitga javobgarlik hissini oshiradi. Estetik did va ijodiy tafakkurni rivojlantirish – Tabiat go’zalligini kuzatish bolalarning nafaqat ekologik, balki estetik qarashlarini ham boyitadi. Ular rasm chizish, hikoya yozish yoki shunchaki o’z fikrlarini ifodalash orqali o’z his-tuyg’ularini bildiradilar.

Ekskursiyalarni tashkil qilish bo’yicha tavsiyalar;

Yoshga mos joy tanlash

–O‘quvchilarning qiziqishlari va yoshiga mos keladigan joylarni tanlash muhim. Masalan, bog’lar, tabiat qo’riqxonalari, ekologik markazlar. Faoliyat bilan boyitish;

– Ekskursiya faqat sayr qilish bilan cheklanmasligi, balki bolalar faol ishtirok etadigan tadbirlar bilan boyitilishi kerak. Masalan, o’simliklar va hayvonlar kuzatuvi, chiqindilarni saralash amaliyoti. Tashrifdan keyin muhokama qilish; – Ekskursiya taassurotlarini muhokama qilish va o‘quvchilarni o’z fikrlarini ifodalashga undash ularning tajribasini yanada mustahkamlaydi. Bir nechta metodikalarni ham qollasak bo’ladi:

1. “Kuzat va yozib bor” (наблюдение и запись) Maqsad: O‘quvchilarni atrof-muhitni diqqat bilan kuzatishga o’rgatadi. Amalga oshirish: Har bir o‘quvchiga yoki kichik guruhlarga kuzatuv daftarchalari beriladi. Ular ekskursiya davomida o’zlariga qiziq

tuyulgan narsalarni yozib boradilar yoki chizadilar. Afzalligi: E’tibor, tafakkur va yozma nutq rivojlanadi.

2. “Savol-javob yurish davomida” (вопрос-ответ по ходу экскурсии) Maqsad: Faol fikrlashni rag’batlantirish. Amalga oshirish: O’qituvchi turli nuqtalarda to’xtab, o‘quvchilarga joy, predmet yoki hodisa haqida savollar beradi. Afzalligi: Eshitish, tushunish va gapirish ko’nikmalari rivojlanadi.

3. “Mini-tadqiqot” metodi Maqsad: O‘quvchilarning mustaqil ishlash va tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantirish. Amalga oshirish: Har bir guruhgaga ekskursiyadan oldin kichik tadqiqot topshirig‘i beriladi (masalan: daraxt turlari, tarixiy joy haqida ma’lumot, ekologik holatni baholash). Ekskursiya davomida kerakli ma’lumotlarni yig‘ib, so‘ng darsda taqdimot qilishadi.

Boshlang’ich bolalarga aslida mакtabgacha ta‘lim vaqtida ekoliya haqida tushuncha berish, tabiatni qanday asrash haqida o‘rgatilgan bo‘lishi lozim. Lekin hozirgi vaqtida afsuski bunga e’tibor kamaygan. Amaliy faoliyatda bolalarning individual namoyon bo‘lishi ularning ekologik tarbiyasi va madaniyati darajasining ko’rsatkichidir. Odatta biz bolalarning e’tiborini gulzorlarga, daraxtlarga, qushlarga, yilning turli vaqtlarida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga qaratamiz. Bolalar o‘qituvchi yordamida kunning davomiyligi, ob-havo, o‘simpliklar va hayvonlar hayotidagi o‘zgarishlar to‘g’risida xulosa chiqaradilar. Shuningdek, bolalarda kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun qum, yer, loy, qor, muz, suv xususiyatlari bilan tanishish bo‘yicha muhim tajribalar o‘tkaziladi. Bunday tajriba asosida biz kuzatilgan hodisaning sababini ochib beramiz, bolalarni mustaqil fikr va xulosalar chiqarishga o‘rgatamiz. Bu jarayonda tabiiy materiallar bilan o‘yinlar tashkil etiladi. Shuningdek, sayr qilish paytida didaktik o‘yinlar o‘tkaziladi, masalan: «Mevaga nom bering», «Mavsumlar», «Ta’rifi bo‘yicha toping», «Bu sodir bo‘lganda» va boshqalar. Shamol bilan ishlaydigan o‘yinchoqlar yordamida biz shamol yo‘nalishi va uning kuchini aniqlashga harakat qilamiz. Shu sababli mакtabgcha bolalarga tabiat haqida ham o‘qitilishi samarali hisoblanadi. Yosh avlod qanchalik tabiatni bolaligidanoq asrab avaylasa ekologiyaning buzilish foizlari ancha kamayadi. Ekologik tarbiya, avvalambor, bolalarni insonparvarlik, xayrixohlik, hissiy munosabat va ularning atrofidagi dunyoga qiziqishini tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero, atrof-muhitni bolaga ta’siri juda katta. Chunki har kuni bolalar u yoki bu shaklda atrof-muhitdag‘i turli narsalar yoki hodisalar bilan aloqaga kirishadilar ya’ni ular qushlarni, hasharotlarni, hayvonlarni, qishda, qor parchalarini, kuzda, sarg’aygan barglarni, yomg’irni kuzatishadi, tabiat haqidagi she’rlar va hikoyalarni tinglashadi. Va tabiat hodisalari, o‘simpliklarga g’amxo‘rlik qilishni o‘rganadilar. Tabiat bolalarni birinchi navbatda o‘zining go‘zalligi, ranglarining yorqinligi, xilma-xilligi bilan o‘ziga jalb qiladi. Shu boisdan «Ekologik tarbiya mакtabgacha yoshda, mакtab davrida, mакtabdan keyingi, mahalla, mehnat jamoasi hamda keksalik davrida turlicha mazmun, shakl va metodlar hamda yondashuvlarda amalga oshiriladi». Bolalar birinchi aniq bilim va tajribani ham shu tabiatdan oladi. Shu sababli ham tabiatga e’tiborni kuchaytirishimiz lozim. Shunda aholiga ham ekoliya ham katta yordam bergen bo‘lamiz.

## XULOSA

Boshlang’ich sinf o‘quvchilari uchun ekskursiyalar nafaqat qiziqarli mashg’ulot, balki ularning atrof-muhitga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantirish va rivojlantirishning samarali usulidir. Tabiat qo‘ynida o‘tkazilgan ekskursiyalar bolalarga jonli tajriba orqali o‘simlik va hayvonot olami bilan yaqindan tanishish, ekologik muammolarni tushunish va ularga e’tiborli bo‘lishni o‘rgatadi. Shuningdek, bunday tadbirlar orqali o‘quvchilarda tabiatni asrash, unga mehr bilan munosabatda bo‘lish hamda ekologik madaniyatni shakllantirish kabi muhim fazilatlar rivojlanadi. Ekskursiyalar natijasida bolalar tabiatning go‘zalligini qadrlashni, uni muhofaza qilish zarurligini anglab yetadilar, bu esa ularning ongli va mas’uliyatli shaxs bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi. Bunda ota onalar bilan ishlash ham katta rol oynaydi. Shu sababli hamkorlikda ishslash lozimdir.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ismoilov A., Axadov R. Ekologik ta’lim-tarbiya. – T.: «O‘qituvchi», 1997. -18-b.
- 2.G’ayrat Muhamedov “davlat pedagogik ekspertizasi” davlat muassasi bosh direktori.
3. Bovanova Umida Abduvahabovna 2021. 3-4b.
4. Lex.uz